ISSN:2828-6235
Impact factor:13.77

International Journal of Literature and Language Studies(IJLLS)

ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI INTEGRATSIYALASHNING SAMARALI USULLARI

Rasulova Malikaxon Abdumalikjon qizi

Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi Pedagog tadqiqotchisi.

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.22942293

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarini o‘zaro integratsiyalashning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Fanlararo integratsiya orqali o‘quvchilarning matnni tushunish, tahlil qilish, mustaqil fikrlash, o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarini integratsiyalashda interfaol metodlar, ijodiy topshiriqlar va amaliy mashqlardan foydalanishning ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Integratsiyalashgan darslarning o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni asoslangan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, boshlang‘ich ta’lim, ona tili, o‘qish savodxonligi, fanlararo integratsiya, interfaol metodlar, mustaqil fikrlash, kompetensiya.

Аннотация: В статье освещаются педагогические возможности интеграции уроков родного языка и читательской грамотности в начальном образовании. Рассматриваются вопросы развития у учащихся навыков понимания и анализа текста, самостоятельного мышления, а также устного и письменного выражения своих мыслей посредством межпредметной интеграции. Также раскрывается значение использования интерактивных методов, творческих заданий и практических упражнений при интеграции уроков родного языка и читательской грамотности. Обосновывается роль интегрированных уроков в развитии знаний, умений и компетенций учащихся.

Ключевые слова: интеграция, начальное образование, родной язык, читательская грамотность, межпредметная интеграция, интерактивные методы, самостоятельное мышление, компетенция.

Abstract: This article discusses the pedagogical possibilities of integrating native language and reading literacy lessons in primary education. It analyzes the development of students’ skills in understanding and analyzing texts, independent thinking, and expressing their ideas orally and in writing through interdisciplinary integration. The article also highlights the importance of using interactive methods, creative tasks, and practical exercises in integrated native language and reading literacy lessons. The role of integrated lessons in developing students’ knowledge, skills, and competencies is also discussed.

Keywords: integration, primary education, native language, reading literacy, interdisciplinary integration, interactive methods, independent thinking, competence.

Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quchilarning nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki olgan bilimlarini amaliy faoliyatda qo‘llay olishi, mustaqil fikrlashi va turli axborotlarni tahlil qila olishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarda o‘qish, tushunish, tahlil qilish va o‘z fikrini aniq ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish keyingi ta’lim jarayonining muhim asoslaridan biridir.

Ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari mazmunan bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu fanlarni integratsiyalash o‘quvchilarning til va nutqiy kompetensiyalarini kompleks ravishda rivojlantirish imkonini beradi. O‘qish jarayonida o‘quvchi matn mazmunini anglaydi, yangi

so‘zlarni o‘zlashtiradi, gap tuzilishiga e’tibor beradi, matnni tahlil qiladi va o‘z munosabatini bildiradi. Ona tili darslarida esa mazkur jarayonni grammatik, leksik va nutqiy topshiriqlar bilan mustahkamlash mumkin.

Boshlang‘ich ta’limda ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari o‘quvchi tafakkuri shakllanishining ikki asosiy yo‘nalishi sifatida maydonga chiqadi. Har ikki fan o‘quvchining til orqali fikrlashi, matnni anglash, tahlil qilish, nutqiy ifoda, mazmunni qayta qurish, savol berish va xulosa chiqarish kabi jarayonlarni shakllantiradi. Shu sababli ularni integratsiya qilish faqat metodik tanlov emas, balki o‘quvchining tabiiy psixik rivojlanish jarayoniga mos pedagogik zaruratdir. Zamonaviy ta’limda integratsiya o‘zining mazmuni va vazifasi bilan tanqidiy fikrlashni shakllantirishga xizmat qiladigan samarali mexanizm sifatida baholanmoqda.

O‘qish savodxonligi fanining mazmuni matnni anglash, muallif fikrini tushunish, personajlarning xatti-harakatiga munosabat bildirish, voqealar bog‘liqligini tushuntirish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. Ona tili fani esa til birliklarini o‘rganish, fikrni izchil bayon qilish, grammatik tuzilmani anglash va nutqiy me’yorlarni egallashni ko‘zlaydi. Bu ikki yo‘nalish alohida o‘qitilganda o‘quvchi uchun nutq va mazmunning bog‘liqligi to‘liq shakllanmaydi, chunki matnni tushunish grammatika orqali mustahkamlanadi, grammatika esa matn kontekstida o‘z ma’nosini topadi. Shuning uchun integratsiya jarayonida o‘quvchi matnning lingvistik, ma’naviy, semantik va mantiqiy tuzilmasini bir vaqtning o‘zida anglash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

O‘qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash jarayoni integratsiya uchun eng samarali maydon hisoblanadi. Har bir matn o‘z ichida kompozitsion tuzilma, sabab-oqibat munosabati, g‘oya, konflikt, personaj, vaqt va makon birliklarini jamlaydi. Bu elementlar nafaqat mazmunni tashkil etadi, balki tilning sintaktik qurilishi, bog‘lovchilar, zamon shakllari, sifat, fe’l va ravishlarning funksional qo‘llanilishi orqali aniq ifoda topadi. Ona tili darsidagi grammatik tushunchalar aynan mana shu matn strukturasini ongli tahlil qilishga yordam beradi. Masalan, matndagi voqealar ketma-ketligini aniqlash o‘quvchini fe’l zamonlari, bog‘lovchi vositalar, gaplarning o‘zaro bog‘lanishi bilan tanishtiradi.

Yangi tadqiqotlarda ham til strukturasini matn asosida o‘rgatish samara berishi ta’kidlanadi. Masalan, C.Snow va hamkorlarining tadqiqotlari mat asosidagi integratsiya o‘quvchilarning o‘qish va til ko‘nikmalarini bir vaqtda rivojlantirishda sezilarli natija berishini ko‘rsatadi.[1]

Integratsiya jarayonida matnning mazmuniy yo‘nalishi grammatik tahlil bilan uyg‘unlashadi. O‘quvchilar matndan asosiy g‘oyani ajratish, muallif munosabatini topish, personajning qarorlarini tahlil qilish jarayonida til vositalariga ham e’tibor qaratadi. Masalan, matnda personajning xatti-harakatini tasvirlaydigan fe’llar, nutqning emotsional tusini belgilovchi sifatlar, sababni bildiruvchi bog‘lovchilar o‘quvchining semantik fikrlashini chuqurlashtiradi. Shu tariqa o‘quvchi grammatik birlikni faqat qoidaga asoslanib o‘zlashtirmaydi, balki ularning mazmuniy vazifasini anglaydi. Bunday yondashuv o‘quvchida reflexiv tafakkur — “nima uchun aynan shu til vositasi ishlatilgan?” degan savolni shakllantiradi. Shunday savol tanqidiy fikrlashning boshlang‘ich ko‘rinishidir.

Integratsiyaning yana bir muhim jihati — matn ustida ishlash jarayonini ko‘p qatlamli tahlil bilan boyitishdir. O‘quvchi matnni o‘qigandan so‘ng personajlar o‘rtasidagi munosabatni, voqeaning sababini, muallifning yashirin niyatini, matnning g‘oyaviy yo‘nalishini izohlashi kerak. Bu jarayon til birliklarining funksiyasini ongli ravishda ko‘rishga yordam beradi. Yangi adabiyotlarda ta’kidlanishicha, matnni ko‘p darajali tahlil qilish o‘quvchilarni yuqori darajadagi

[1] Snow, C. The Science of Reading and Literacy Development. – Cambridge University Press, 2020. - P. 47.

kognitiv operatsiyalarga — tahlil, sintez, umumlashtirish, xulosa chiqarish — jalb qiladi.[2] Bunday yondashuv boshlang‘ich sinflarda ham o‘z samaradorligini isbotlagan.

Integratsiya darslarida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchining nutqiy va aqliy faolligini oshiradi. Masalan, “matndan tortishuv nuqtasini topish”, “matnni davom ettirish”, “matndagi vaziyatni boshqa nuqtayi nazardan qayta hikoyalash”, “personajga maktub yozish”, “matndagi vaziyatni diagrammada tasvirlash” kabi metodlar nafaqat o‘qish savodxonligini, balki til me’yorlarini ham mustahkamlaydi. Bu jarayon o‘quvchini nutqiy muloqotga, ijodiy fikrlashga, matn mazmuni ustidan nazoratni kuchaytirishga undaydi. Matn asosidagi rol o‘yinlari, dramatizatsiyalar, munozaralar o‘quvchilarni faol subyektga aylantiradi va tilning kommunikativ mohiyatini ochib beradi.

Integratsiya jarayonining samarali bo‘lishi uchun matn bilan ishlashni bosqichma-bosqich tashkil etish muhim. Avval o‘quvchi matn mazmunini tushunadi, so‘ng mazmunni grammatik elementlar orqali izohlaydi, keyin esa mazmunni tahlil qiladi va qayta ifodalaydi. Bunda o‘quvchi o‘zining nutqiy modelini shakllantiradi, so‘z tanlash, fikrni izchil bayon qilish va mantiqiy bog‘lanish yaratish kabi malakalarni rivojlantiradi. Bu jarayon o‘qish savodxonligining asosiy ko‘rsatkichlari — ma’no chiqarish, matn ustida izlanish va shaxsiy munosabat bildirishni rivojlantiradi.

So‘nggi yillarda xalqaro tadqiqotlar integratsiya orqali til va o‘qish ko‘nikmalarini birgalikda rivojlantirish dars samaradorligini oshirayotganini ko‘rsatmoqda. Masalan, 2022-yilda chop etilgan "Integrated Literacy Instruction for Elementary Grades" tadqiqotida til va o‘qishning birgalikda o‘qitilishi o‘quvchilar matnni chuqur anglash va mazmunni qayta ishlab chiqish malakasini sezilarli darajada oshirgani isbotlangan. 2023-yilda Singapurda o‘tkazilgan “Literacy and Language Integration Model” tajribasi esa integratsiya qilingan darslar o‘quvchilar fikrlash moslashuvchanligini, matn bilan ishlash tezligini va grammatik anglash darajasini oshirganini ko‘rsatgan.[3]

Integratsiyalashgan ta’limning mahalliy sharoitga mos yondashuvlari ham bor. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tuzilgan “Ona tili” va “O‘qish savodxonligi” darsliklarida ko‘plab matnlar, topshiriqlar va savollar integrativ xususiyatga ega. Masalan, matn asosida “qahramon xatti-harakatini tasvirlang”, “matnda uchragan sifatlarni toping va ular matn kayfiyatiga qanday ta’sir qilganini izohlang”, “matndan dalil keltiring”, “sabab va oqibatni izohlab bering” kabi topshiriqlar mavjud. Bu topshiriqlar semantik tahlil bilan birga grammatik tahlil ham talab qiladi.

4-sinf ona tili darsligi mazmuni tahlili shuni ko‘rsatadiki, unda berilgan test topshiriqlari, mavzu yuzasidan tuzilgan krossvordlar hamda o‘qish savodxonligi bo‘limiga kiritilgan badiiy asarlar asosidagi savollar o‘zaro uzviy bog‘langan holda ishlab chiqilgan. Darslikda ko‘p hollarda o‘qish savodxonligi elementlariga alohida e’tibor qaratilib, matnni tushunish, mazmunini tahlil qilish va xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan topshiriqlar orqali o‘quvchilarning fikrlash faolligi rivojlantiriladi.

Shuningdek, ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarining integratsiyalashgan holda o‘qitilishi darslik va mashq daftarlari mazmunida yaqqol namoyon bo‘ladi. Turli xil ijodiy, mantiqiy va tahliliy topshiriqlar orqali o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi mashqlar tizimli ravishda berilgan. Ayniqsa, mashq daftaridagi savol va topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, matn bilan ishlash kompetensiyasini rivojlantirish hamda o‘z fikrini asoslab berish malakalarini shakllantirishga yo‘naltirilgani bilan ahamiyatlidir.

[2] Fang, Z., Park, Y. Disciplinary Literacy Instruction in Elementary Classrooms. – Routledge, 2023. - P. 78.

[3] Duke, N.K., Cartwright, K.B. The Integrated Literacy Framework: Evidence-Based Practices for Reading Instruction. – Guilford Press, 2022. - P. 21.

Natijada, 4-sinf ona tili darsligida fanlararo integratsiya asosida tashkil etilgan topshiriqlar o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, o‘qish savodxonligi va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

O‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va darsliklar tahlili natijalariga tayangan holda, 4-sinf ona tili darslarida o‘qish savodxonligi bilan integratsiyalashgan ta’limni samarali tashkil etishga yo‘naltirilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Ushbu metodlar o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, matn bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda fanlararo bog‘liqlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Quyida taklif etilayotgan metodlar dars jarayonida nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan.

Fikrlashning olti xil usuli **“Olti shlyapa”** metodi.

"Oltita fikrlash shlyapa" usuli 1980 yilda ingliz olimi, psixolog doktor Edvard de Bono tomonidan yaratilgan va o‘zining” O‘qish ko‘nikmalarini rivojlantirish” asari orqali bayon etilgan. Nima uchun aynan “Olti shlyapa” deb nomlangan? Ingliz xalqida shunday ibora bor: Birovning shlyapasini kiymoq, o‘sha kabi fikrlamoq” Bu o‘quvchining parallel fikrlash jarayonini va muammolarni bir nechta nuqtai nazardan baholash orqali qaror qabul qilish qobiliyatini yaxshilash uchun juda samarali usuldir. Bu metodni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida qo‘llab ko‘rildi. Ushbu metod o‘quvchiga olti xil tartibda fikrlashni o‘rgatadi. Bu metod ko‘pincha ona tili, o‘qish savodxonligi, matematika, tarbiya, tabiiy fan darslarida yoki biror masala, muammoli vaziyatni yechish jarayonida qo‘llaniladi.

Shlyapa ranglari - bu go‘yalar, munosabat va ma’lumotlarning diqqat markazida va o‘zgaruvchanligi. Ushbu uslub qo‘shma ijodkorlikni izlashni soddalashtiradi, barcha ishtirokchilarni ijodiy faoliyatga jalb qiladi, gapirish va tashabbus ko‘rsatish imkoniyatini beradi.

“Video-matnli tahlil asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodi”.

Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili va o‘qish savodxonligi fanlarida bu kompetensiyani rivojlantirish o‘quvchilarning matnni anglash, tahlil qilish, xulosa chiqarish hamda fikrni asoslab bayon etish qobiliyatlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim jarayoniga video roliklar asosida tashkil etilgan integratsiyalashgan metodni joriy etish samarali pedagogik yechim sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur metodning mohiyati ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida mavzuga mos qisqa video lavhalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning kuzatuvchanligi, tahliliy tafakkuri hamda mustaqil fikrlash faoliyatini faollashtirishdan iborat. Video roliklar vizual va audial axborotni birgalikda taqdim etgani sababli o‘quvchilarning idrok jarayonini kuchaytiradi va o‘rganilayotgan matn mazmunini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Metodni qo‘llash bosqichlari:

Birinchi bosqichda o‘qituvchi dars mavzusiga mos, yosh xususiyatlariga moslashtirilgan qisqa video rolikni tanlaydi. Ushbu video lavha badiiy matn mazmuni, ijtimoiy vaziyat, axloqiy muammo yoki voqealar ketma-ketligini aks ettirishi lozim. Video ko‘rishdan oldin o‘quvchilarga muammoli savollar beriladi. Bu savollar o‘quvchilarni faol kuzatuvga undaydi va ularning oldindan taxmin qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ikkinchi bosqichda video rolik namoyish etiladi. Namoyish jarayonida o‘quvchilar voqealar rivoji, qahramonlarning xatti-harakati, muallif g‘oyasi hamda sabab-oqibat munosabatlariga e’tibor qaratadilar. Ushbu jarayon o‘quvchilarning tahliliy fikrlash faoliyatini faollashtiradi.

Uchinchi bosqichda video mazmuni asosida ona tili va o‘qish savodxonligi fanlariga oid integratsiyalashgan topshiriqlar bajariladi. Jumladan, o‘quvchilardan videoda aks etgan voqeani matn shaklida qayta bayon qilish, asosiy g‘oyani aniqlash, sarlavha tanlash, qahramonlarga tavsif berish, muammoli vaziyatga nisbatan o‘z munosabatini bildirish talab etiladi. Bu topshiriqlar

o‘quvchilarning fikrini asoslab aytish, dalillash va xulosa chiqarish kompetensiyalarini rivojlantiradi.

To‘rtinchi bosqichda bahs-munozara va refleksiya tashkil etiladi. O‘quvchilar video mazmuni va matn o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni taqqoslaydilar, muqobil yechimlarni taklif etadilar hamda o‘z fikrlarini mantiqiy asoslashga harakat qiladilar. Ushbu bosqich tanqidiy fikrlashning eng muhim tarkibiy qismi — baholash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Video roliklar asosida tashkil etilgan integratsiyalashgan metod o‘quvchilarning ona tili va o‘qish savodxonligi fanlariga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning nutqiy faolligini kuchaytiradi hamda o‘quv jarayonini interfaol tusga keltiradi. Mazkur metod orqali o‘quvchilar matnni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni tahlil qiluvchi, baholovchi va ijodiy yondashuvchi subyektga aylanadilar.

Dars jarayonida o‘quvchilarda nafaqat to‘g‘ri javob berish, balki to‘g‘ri savol tuzish ko‘nikmasini shakllantirish muhim. Shu maqsadda darsda muallifligimdagi “G‘ijimlangan qog‘oz” metodini o‘tkazish bosqichlari quyidagicha:

- har bir o‘quvchi bitta varaqda mavzuga oid 2 ta savol tuzdi;
- savol tuzuvchi o‘quvchi ism va familiyasini yozib qoldirdi;
- so‘ng qog‘ozlar g‘ijimlanib, dumaloq holga keltirildi va maxsus idishga yig‘ildi;
- keyingi bosqichda o‘quvchilar idishdan qog‘oz tanlab, undagi savollarga og‘zaki javob berdilar.

Muhim jihati:

Savollarga javob berish jarayonida noto‘g‘ri yoki noaniq tuzilgan savollar alohida tahlil qilindi. Savol muallifiga tavsiyalar berilib, savolni to‘g‘ri va aniq tuzish bo‘yicha yo‘naltirildi.

Natijada o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash rivojlanadi, savol tuzish madaniyati shakllanadi, faol ishtirok va sog‘lom muhokama yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, mazkur mavzular tizimi fanlararo integratsiyani ham ta’minlaydi. Ona tili, adabiyot, tarix, tabiatshunoslik va tarbiya fanlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik orqali o‘quvchilarda yaxlit bilim tizimi shakllantiriladi. Natijada o‘quv jarayoni faqatgina ma’lumot berish bilan cheklanib qolmay, balki o‘quvchini hayotga tayyorlovchi kompleks ta’lim muhitini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. R.A. Mavlonova, N. H. Rahmonqulova “Boshang‘ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi” Toshkent -“Ilm ziyo,2009. -192b.
2. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi,innovatsiya va integratsiyasi” Toshkent “Voris nashriyot”, 2013. -198b.
3. “Pedagogik Texnologiyalar va Pedagogik Mahorat ” H. T. Omonov, N. X Xo‘jayev, S. A Madyarova, E. U Eshchanov. Toshkent “IQTISOD MOLIYA”2009. -240b.
4. Скаткин М. Н. Проблемы современной дидактики. 2 –е изд. -- М: Педагогика, 1994. С96.
5. Dewey J. How We Think. – Boston; New York; Chicago: D. C. Heath & Co, 2021. -23b.
6. Lipman M. Thinking in Education. – 2nd ed. – New York: Cambridge University Press, 2023. -67b
7. www. ziyonet. uz
8. www. lex. uz
9. www. pedagog. uz